



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

ANGOR TUMANIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN YANGI LOYIHALARI

Gavhar Jumayeva

Angor tumani hokimligi Axborot xizmati rahbari

Angor tumanining Kattaqum mahallasi hududida “Stone City Energy” kompaniyasi tomonidan 1500–1600 MVt quvvatga ega bo‘lgan issiqlik elektr stansiyasi qurilishi boshlangan. Loyiha umumiy qiymati 1,23 milliard yevroni tashkil etib, Germaniya, Fransiya, Qatar va Niderlandiya kabi davlatlar kompaniyalari hamda xalqaro bank va jamg‘armalarning investitsiyalari jalb qilingan. Issiqlik elektr stansiyasi to‘liq ishga tushgandan so‘ng, 1500 ta doimiy ish o‘rni yaratiladi. Yiliga 12,96 million MVt elektr energiyasi ishlab chiqariladi.





E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

Bugungi kunda issiqlik elektr toki ishlab chiqarish stansiyasining **1-bosqich** qurilish ishlari davom etmoqda. Qurilish jarayonida 2 mingga yaqin aholi ish bilan ta'minlangan.



Angor tumanidagi “Durdon Asila Angor” MChJ tomonidan polietilen paketlar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu loyiha mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o‘rnulari yaratishga qaratilgan. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 1mlrd 140 mln so‘m bo‘lib, shundan 800 mln so‘m tadbirkorning o‘z mablag‘i hisobidan, 340 mln. so‘m bank krediti hisobidan ajratilgan. Hozirgi kunda 5 ta yangi ish o‘rni yaratilgan.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025



Yurtimizda qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda oqova suv sarfini sezilarli darajada iqtisod qilish bo‘yicha «Kambag‘allikdan farovonlik sari» dasturiga asosan ichki ariqlarni betonlash ishlari olib borilmoqda.



E CONF SERIES




International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025



Angor tumanida “Kambag‘allikdan-Farovonlik sari” dasturi asosida ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, tumandagi 5 ta mahallada dasturga asosan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Qadimiy Angor mahallasidagi “O‘rdali” kanalining 2,5 km qismi betonlashtirildi. 1-dona nasos agregati olib kelindi. Qo‘shtegirmon mahallasida “Mustaqillik 21-asr” kanalining 2,4 km qismi betonlashtirildi. Kattaqum mahallasida “Egambobo-1,” GES kanallarining 4,0 km qismida betonlashtirish ishlari olib borildi. Tallashqon mahallasida “Zang-2” ichki arig‘i kanallarining 1,2 km qismi betonlandi. Navruz mahallasidagi “Angor-2” kanallarining 1,2 km qismida ham betonlashtirish ishlari amalga oshirildi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th April, 2025

